

ESHITISHDA TURG'UN NUQSONGA EGA BO'LGAN BOLALAR TAVSIFI VA TASNIFI

Yo'ldasheva Shahlo Po'latjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim va maxsus pedagogika fakulteti

1-bosqich 101-guruh talabasi

Tel:+99850 711 13 38

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18844811>

Annotatsiya: Ushbu maqolada eshitishda turg'un nuqsonga ega bo'lgan bolalarning psixofiziologik xususiyatlari, ularning rivojlanish jarayonidagi o'ziga xosliklari hamda ta'lim-tarbiya jarayonida uchraydigan muammolar yoritilgan. Maqolada eshitish nuqsonlarining darajalari, ularning nutq, tafakkur va iltimoiy moslashuvga ta'siri ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, bunday bolalar bilan ishlashda qo'llaniladigan maxsus pedagogik yondashuvlar, eshitish apparatlari va logopedik mashg'ulotlarning ahamiyati bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Surdopedagogika, rinolaliya, koxlear implant, parotit, ijtimoiy moslashuv, psixofiziologik xususiyatlar, pedagogik yondashuv.

Аннотация: В данной статье рассматриваются психофизиологические особенности детей с устойчивыми нарушениями слуха, их специфика в процессе развития, а также проблемы, возникающие в процессе обучения и воспитания. В статье анализируются степени нарушений слуха, их влияние на речь, мышление и социальную адаптацию на основе научных источников. Кроме того, раскрывается значение специальных педагогических подходов, слуховых аппаратов и логопедических занятий в работе с такими детьми.

Ключевые слова: Сурдопедагогика, тихо, имплантат кохлера, свинка, социальная адаптация, педагогический подход, психофизиологические особенности.

Annotation: This article examines the psychophysiological characteristics of children with various degrees of hearing impairment, their specific developmental features, and the challenges encountered in the educational and upbringing processes. The article analyzes the levels of hearing impairment and their impact on speech, thinking, and social adaptation based on scientific sources. In addition, it highlights the importance of special pedagogical approaches, the use of hearing aids, and speech therapy sessions in working with such children.

Keywords: Surdopedagogy, it's quiet, koxlear implant, mumps, social adaptation, psychophysiological characteristics, pedagogical approach.

Kirish (Introduction)

Maxsus pedagogikaning bir tarmog'i bo'lgan surdopedagogika (lot. "surdus"-karlik), eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar va kattalar ta'lim-tarbiyasi, ularni rivojlantirish va ijtimoiy muhitga moslashtirish kabi masalalarni o'rganadi. Eshitish – bolaning atrof-muhit bilan muloqot qilishi, nutqni egallashi va ijtimoiy-psixologik rivojlanishi uchun kerakli analizatorlardan biridir. Eshitish apparatida kuzatiladigan har bitta turg'un nuqson bola rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan eshitishda turg'un buzilish mavjud bo'lgan bolalarni o'z vaqtida aniqlash, chuqur o'rganish va to'g'ri tasniflash maxsus pedagogika oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.

Eshitishning turg'un nuqsoni-bu eshitish analizatori faoliyatining uzoq muddat davomida buzilishi natijasida yetarli darajada qabul qila olmaslik yoki umuman

eshitmaslikdir. Eshitishda turg'un buzilishlar bolaning nutqiy rivojlanishi, fikrlash jarayonlari, ijtimoiy hayotga moslashuvi hamda ta'lim jarayonlariga sezilarli darajada o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Eshitishda turg'un nuqsonlar ikkita katta guruhga bo'linadi: kar bolalar va zaif eshituvchilar. Tug'ma hali tili chiqmagan go'daklik davrida ikkala quloqning mutlaqo eshitmay qolishi kar soqovlikka olib keladi. Eshitish qobiliyatining qisman buzilishi sababli nutqiy nuqsonga uchragan bolalar zaif eshituvchilar guruhiga kiritiladi. Nutqi rivojlanib, shakllanib olgandan so'ng yaxshi eshitmay qolgan bolalar, keyinchalik, zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalar toifasiga kiritiladi.

Turg'un eshitish nuqsonlari kelib chiqish sabablariga ko'ra tug'ma va orttilgan bo'ladi. Kar bolalarning 25-30 foizida eshitish nuqsonlari tug'ma bo'ladi. Sababi: homiladorlik davrida onaning turli xil kasalliklar, masalan, grippning og'ir turlari, qizamiq, qizilcha kabi infeksiyali kasalliklar bilan og'rishi, onaning toksik moddalarga ruju qo'yishi, bilib-bilmasdan nojo'ya ta'sir qiluvchi dori-darmonlarni qabul qilishi, homilaning shikastlanishi, tug'ruq jarayonida kislorod yetishmay qolishi (asfiksiya). Orttirilgan (postnatal) nuqsonlar bola tug'ilganidan keyin paydo bo'ladi. Bolaning ilk yoshida otit, parotit, meningit, meningoensefalit, qizilcha, qizamiq kabi kasalliklar bilan kasallanishi ba'zi hollarda kar-soqovlik yoki zaif eshitishga olib keladi.

Eshitish darajasi, odatda, detsibel (Db) bo'yicha aniqlanadi. Quyidagi tasnif ko'pchilik audiologik standartlarda qo'llanadi:

1. Normal eshitish – 0-25 Db

Nutq tovushlarini yaxshi eshitadi, kundalik muloqotda qiyinchilik bo'lmaydi.

2. Yengil darajadagi eshitish pasayishi – 26-40 Db

Past ovozlarni uzoqdan aytilgan gaplarni eshitishda qiyinchilik bo'ladi.

3. O'rta darajadagi eshitish pasayishi – 41-55 Db

Oddiy nutqni eshitish qiyin, ko'pincha, takrorlash kerak bo'ladi.

4. O'rta og'ir darajadagi eshitish pasayishi – 56-70 Db

Oddiy nutqni eshitish juda qiyin, baland gapirilgandagina qabul qilinadi.

5. Og'ir darajadagi eshitish pasayishi – 71-90 Db

Faqatgina juda baland ovozlarni eshitadi. Ko'p hollarda eshitish apparati kerak bo'ladi.

6. Juda og'ir darajadagi eshitish pasayishi – 90 Db dan yuqori

Tovushlarni deyarli eshitmaydi. Ko'pincha, imo-ishora tili, koxlear implant yoki chuqur darajadagi pedagogik yondashuv talab etiladi. L.V.Neyman eshitish chastotalari maydoni yordamida qabul qilish diapazoniga asoslanib, karlarni to'rtta guruhga ajratadi.

1-guruhda 250Gc chastotalarni qabul qiladiganlar. Bu bolalar tovushlarning birortasini ham ajrata olmaydilar, faqat quloq oldida baland ovozni eshitadilar. (Baqiriy, poyezd gudogining ovozi.) 2-guruh 125-250-500 Gc chastotalarni qabul qiladi. Bu bolalar faqatgina eshitibgina qolmay, «o», «и» unililarini ajratadilar. Yaqin masofada atrof-muhitdagi tovushni eshitadilar. 3-guruh 125-250-500-1000 Gc chastotalarni qabul qiladi. Bu guruh bolalari quloq oldida so'zlashuv balandligidagi ovozlarga e'tibor beradilar, 3-4 unilarni anglaydilar, ularning ko'pchiligi ba'zi tanish so'zlarni anglashadi. 4-guruh 125-2000 Gc. Bu guruhdagi ko'pchilik bolalar quloq oldida va uzoq bo'lmagan masofadagi gaplarni eshitadilar. Tanish gaplar va so'zlarni, unli va undoshlarni ajratadilar.[8,192]

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi (Literature analysis and methodology)

Surdopedagogika tarixiga nazar tashlasak, F.F. Rau, L.V. Neyman va V.I. Belyukovlarning ta’riflashicha, “zaif eshitish deb eshitishning shunday pasayishiga aytiladiki, bunda nutqni idrok qilishda qiyinchiliklar tug’iladi, biroq maxsus yaratilgan shart-sharoitlarda (ovozni kuchaytirish, gapiruvchining bevosita quloqqa yaqin kelishi, tovush kuchaytiruvchi asboblarni qo’llash va hokazo) eshitishi yordamida nutqiy muloqotga kirishish mumkin bo’ladi”.

Zaif eshituvchilarda eshituv funksiyasi holati bilan bog’liq bo’lmagan nutqiy kamchiliklarning shakli ham kuzatiladi. Bular duduqlanish, nutq tempining buzilishi, rinolaliya, optik disgrafiya va disleksiya, dizartriya, mexanik dislaliya, ovoz buzilishi, alaliya, erta bolalar afaziyasi.

R.M. Boskis, A.G. Zikeyeva, K.G. Korovina va boshqalar tadqiqotiga muvofiq, zaif eshituvchilar uchun lug’at boyligining nihoyatda chegaralanganligi xarakterlidir. R.M. Boskis bo’yicha, kundalik predmet va harakatlarni nomlashda 27,7 % zaif eshituvchi o’quvchilargina 80% to’g’ri javobni beradilar. Zaif eshituvchilar predmet belgilari nomini ham qiyinchilik bilan o’zlashtiradilar. Chalg’ituvchi ahamiyatga ega va kasbiy so’zlarni o’zlashtirish zaif eshituvchi bolalar uchun alohida qiyinchilik tug’diradi. Ko’pincha bu so’zlar bir undosh tovushdan tuziladi, shu sababli bolalar tomonidan tushirib qoldiriladi.[2,421-422]

Ushbu tadqiqot eshitishda turg’un nuqsonga ega bo’lgan bolalarning psixofiziologik, jarayonida maxsus pedagogika faniga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar, turli xil metodlar hamda kuzatish asosidagi tahlil usullari qo’llanildi. Kuzatish asosida to’plangan ma’lumotlar eshitishda turg’un nuqsonga ega bolalarning pedagogik tavsifini aniq shakllantirish, ularni toifalarga ajratish mezonlarini belgilash hamda ta’lim jarayonida individual yondashuvni takomillashtirish imkonini beradi.

Xulosa (Conclusion)

Eshitishda turli darajadagi nuqsonlarga ega bo’lgan bolalar bilan ishlash jarayoni maxsus pedagogika, psixologiya va lingvistika fanlarining chuqur yondashuvini talab qiladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, eshitishning pasayishi nafaqat nutqning shakllanishiga, balki bolaning umumiy psixik rivojlanishiga, tafakkur jarayonlariga, emotsional holatiga va ijtimoiy moslashuviga ham sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Shu bois, eshitish nuqsonlariga ega bolalarni erta aniqlash, ularning individual rivojlanish xususiyatlarini o’rganish va ularga moslashtirilgan maxsus ta’lim-tarbiya metodlarini qo’llash muhim ilmiy-metodik ahamiyatga egadir.

Maqolada eshitish nuqsonining darajalari, ularning nutq rivojlanishiga ta’siri hamda eshitish apparatlaridan foydalanish samaradorligi ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, eshitish apparatlari, kohlear implantatsiya, vizual-taktil usullar va audio-vizual qo’llab-quvvatlash texnologiyalari bilan boyitilgan ta’lim muhitida bunday bolalarning nutqi, lingvistik kompetensiyalari va kommunikativ ko’nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi. Shuningdek, logopedik mashg’ulotlarning tizimli tashkil etilishi nutq tovushlarini to’g’ri talaffuz qilish, lug’at boyligini kengaytirish, grammatik tuzilmalarning shakllanishi hamda muloqot kompetensiyalarining mustahkamlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Mazkur tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, eshitishda nuqsoni bo’lgan bolalar bilan ishlashda kompleks yondashuv – pedagogik, psixologik, tibbiy va texnik qo’llab-quvvatlashni o’z ichiga olgan integrativ yondashuv eng samarali hisoblanadi. Pedagog bunday bolalarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini moslashtirishi, differensial metodlarni qo’llashi, sensor kompensatsiyani faollashtiruvchi mashqlarni o’tkazishi zarur. Ota-onalar bilan

hamkorlik, oilaviy pedagogik maslahatlar va oila ichida to‘g‘ri kommunikativ muhitni shakllantirish ham bolaning ijtimoiylashuviga sezilarli ta‘sir qiladi.

Xulosa qilib aytganda, eshitish nuqsoniga ega bolalarning to‘laqonli rivojlanishini ta‘minlash uchun erta tashxis, samarali pedagogik yondashuvlar, texnik rehabilitatsiya vositalaridan to‘g‘ri foydalanish, logopedik mashg‘ulotlar va ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlashning o‘zaro uyg‘unligi juda muhimdir. Bunday kompleks yondashuv nafaqat bolalarning nutqiy va intellektual rivojlanishiga, balki ularning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvi, kommunikativ faolligining ortishi va kelajakda mustaqil ijtimoiy hayotga tayyorlanishiga ham asos yaratadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Рау Ф.Ф., Нейман Л.В., Бельтюков И.И. Использование и развитие слухового восприятия у глухонемых и тугоухих учащихся. —М., 1961, —с.46.
2. М. У. Аюпова “Logopediya” – 2007.
3. World Health Organization (WHO). Hearing Loss Grades, 2021.
4. Hall, J. W. Introduction to Audiology, 12th Edition. Pearson, 2018.
5. Bagdalov, A. A. Surdopedagogika asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
6. P. M. Po‘latova. Maxsus pedagogika. T., 1999
7. D. A. Nazarova, Z. N. Mamarajabova Maxsus pedagogika (surdopedagogika). Darslik. – Toshkent: “INNOVATSIYA – ZIYO”, 2020.- 488b.
8. Maxsus pedagogika (Darslik).-T.: <<Fan va texnologiy>>, 2014, 368 bet.